



OILADA PSIXOLOGIK MUHITNING YOMONLIGI: NIZOLAR VA KONFLIKTLAR

Rahmonova Mahliyo Boymurodovna

Xalqaro innovatsion universitet o'qituvchisi

Abduraxmonova Sabrina O'ktam qizi

Talaba:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15117405>

Annotatsiya: Ushbu maqolada konfliktli vaziyatlarni hal etishda oilaning roli, konfliktlarni hal etishda ota-onalarning pedagogik-psixologik to'g'risida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy-qadriyatli, sub'ektiv, ijtimoiy, yoshlar, mustahkam, pedagogik-psixologik, jamiyat, hissiy-emotsional, oila, ta'sir tarbiya.

Oilalarda psixologik muhitning yomonlashishi va doimiy nizolar bir-birini kuchaytiruvchi omillar bo'lib, oila a'zolarining ruhiy salomatligi va farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday holatlar shaxs kamoloti shaxslararo munosabatlar ijtimoiy va siyosiy hayotda bo'ladigan voqealarni osonlashtiriladi. Oila ichidagi psixologik muhitning yaxshi emasligi ya'ni nizo va konfliktlar ko'pincha bir nechta omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday holatlar oila a'zolari o'rtasidagi muloqotning yomonlashishi his-tuyg'ularni ifoda etishning qiyinlashishi yoki o'zaro ishonchning pasayishi tufayli yuzaga keladi. Buning natijasida turli xil xulq-atvor muommolari, tushunmovchiliklar yoki hatto zo'ravonliklar paydo bo'lishi mumkin.

Psixologik konfliktlar oila a'zolarining o'zaro aloqalariga o'z-o'zini qabul qilishlariga va bolalarning o'sishi va ta'limiga zarar yetkazishi mumkin. Shuningdek doimiy nizo oilaning ruhiy va jismoniy farovonligini kamaytiradi. Bunday muhitda oila a'zolariga maslahatlar, terapevtik yondashuvlar yoki oilaviy maslahatxizmatlari yordamida bu muammoni hal qilish muhimdir.

Psixologik qo'llab-quvvatlash oila ichidagi ahvolni yaxshilashga va konfliktlarni hal qilishga yordam berishi mumkin. Bunday vaziyatlarda muommo hal qilinmasa oilada doimiy stress, nizo konflikt o'zaro ishonchliksiz va emotsional izolyatsiya paydo bo'lishi mumkin.

Oila a'zolari o'rtasida muloqot etishning past darajasi his tuyg'ularni ifodalashdagi cheklovlar yoki ko'proq zararli va tajovuzkor xatti- harakatlar bu muhitni yanada yomonlashtiradi. Psixologik muhitni yaxshilash uchun oilada ochiq muloqot va bir-birini tushunishga intilishga zarur. Bunday yondashuvlar konfliktlarni hal qilishga o'zaro hurmat va ishonchni rivojlantirishga yordam beradi. Agar zarur bo'lsa oilaviy terapiya yoki psixolog yordamiga murojat qilish ham samarali bo'lishi mumkin.





Oilalarda psixologik muhitning yaxshi emasligi ko'pincha nizo yoki konfliktlarga olib keladi. Psixologik muhit ya'ni oila a'zolari o'rtasidagi hissiy aloqalar hurmat ishonch va muloqot darajasi oila ichidagi tinchlik va barqarorlikni belgilaydi. Agar muhit yomon bo'lsa o'zaro tushunmovchiliklar, to'qnashuvlar va nizolar paydo bo'lishiga mumkin. Oila ichidagi konfliktlar quydagi sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin.

Komunikatsiyaning yetishmasligi: oila a'zolari o'rtasidagi ochiq va samimiy muloqotning yo'qligi o'zaro tushunmovchilikga olib kelishi mumkin.

Qat'iy qarorlar va murosasizlik: har bir a'zoning fikri va his-tuyg'ularga hurmat qilmaslik o'zaro murosasizlikni kuchaytiradi.

Tashqi stress: moliyaviy yoki ish bilan bo'liq bo'lgan tashqi muommolar oiladagi ruhiy muhitga ta'sir qilishi mumkin.

O'zaro ishonchning yo'qligi: oila a'zolari o'rtasida ishonchning pastligi xiyonat yoki sirlarni yashirish konfliktlarni kuchaytiradi.

O'zgarishlarga moslashmaslik: oila a'zolarining o'zgaruvchan ehtiyojlar va sharoitlarini moslashmasligi qattiq qarashlar yoki qo'llanmalarga yopishish nizolarga sabab bo'lishi mumkin.

Bunday vaziyatlarda oilaning yaxshi psixolog muhitni tiklash uchun ochiq va samimiy muloqot, o'zaro hurmat va murosa qilishga tayyorlik zarur. Shuningdek, psixologik yordam olishi kerak oilaviy maslahatlashuvlar ham muammoni hal qilishda foydali bo'lishi mumkin.

Oilalarda psixologik muhitning yaxshi emasligi ko'pincha nizolar va konfliktlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday xolatlarda oilaviy a'zolar o'rtasida hissiy aloqalar zaiflashadi, o'zaro tushunmovchiliklar, ishonchsizliklar va qo'pollik yuzaga kelishi mumkin. Nizo va konfliktlar turli omillar jumladan turmush o'rtog'ining o'zaro muammolari farzandlar bilan bog'liq muommolar moliyaviy qiyinchiliklar yoki oiladagi yuksak stress tufayli paydo bo'lishi mumkin. Bunday holatlarni hal qilish uchun oila a'zolarining o'zaro muloqot qilishga intilishi muommo va ziddiyatlarni ochiq va mehrli tarzda muhokama qilishlari zarur. Shuningdek psixologik yordam maslahatlar va terapiya ham oilaning yaxshilanishiga yordam berishi mumkin. Konfliktni hal qilish va o'zaro hurmatni tiklash uchun sabr toqat, tushunish va qo'llab quvatlash juda muhimdir.

1) Oiladagi psixologik muhitning yomonlashish: oila a'zolari o'rtasidagi tushunmovchiliklar yoki jismoniy emotsional masalalar oilada yomon psixologik muhitni yaratadi.





2) Nizo –kofliktlar: bu turdagi muhitda oiladagi a'zolar o'rtasida turli xil nizolar janjallar va muommolar yuzaga keladi. Bu ehtimol xotin va er o'rtasidagi yok iota-ona bolalar o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir qiladi.

3) Emotsional zaiflik: oila a'zolarining bir-bilariga bo'lgan munosabati ularning psixologik holatni va oilaning umumiy ahvolini yomonlashtirishi mumkin.

Oila ichidagi psixologik muhitning yomonlashuvi va nizo-konfliktlar ko'plab oilalarda uchraydigan masalalardir. Bu holat oilaning umumiy faravonligiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bir-birini tinglamaslik yoki his-tuyg'ularni ochiq aytnaslik muommo yaratadi. O'zaro hissiy qo'llab quvatlashning yo'qligi oila a'zolarining emotsional holatiga salbiy ta'sir qiladi.

Stress noqulaylik va qiyinchiliklar oilada tartibsizlik va nizo keltirib chiqaradi. Ba'zi oilalarda ruhiy va jismoniy zo'ravonlik mavjud bo'lib bu psixologik muhitni yanada yomonlashtiradi va oilaning farovonligiga zarar yetkazadi. Oila ichidagi psixologik muhitni yaxshilash uchun ochiq muloqat, bir-birini tushunishva hissiy qo'llab quvatlash muhimdir. Konfliktlarni hal qilishda hamkorlik va murosa muhim rol o'ynaydi.

Konflikt (lot. contlictue — ixtilof, to'qnashish) — 1) qarshi tomonlar, fikrlar, kuchlar to'qnashuvi; 2) adabiyot va san'atda — badiiy asar mohiyatida yotgan ziddiyat, personajlarning o'zaro to'qnashishi, ixtilofi. Konflikt epik asarlarga nisbatan qo'llanadi, dedektiv romanlarda esa u kolliziya, kechinma, fikr oqimi tarzida namoyon bo'ladi. Konfliktning 3 xil ko'rinishi mavjud: asar qahramonlarining bir-birlari bilan to'qnashuvi, kurashi; shartsharoit, muhit bilan to'qnashuv; o'z-o'zi bilan ichki kurash. Drama konfliktni harakatni rivojlantiruvchi, keskinlashtiruvchi xususiyatga ega. Konfliktda yozuvchining dunyoqarashi, voqelikni, hayotni, dunyoni va insonni qanday idrok etishi va tushunishi namoyon bo'ladi. Dramaturgiyada "tashqi" konfliktga keng o'rin beriladi, bunda qahramonlar o'zaro bir-biri bilan ixtilofda, kurashda bo'ladi, "ichki" konfliktda esa qahramonning o'z burchini his etishi bilan ojiz ruhiy tomoni, hissiy iztiroblari, holati o'rtasidagi ziddiyat tarzida ko'rinadi. Mazmuni, yo'nalishi nuqtai nazaridan konfliktning maishiy, axloqiy, ijtimoiy, siyosiy, falsafiy va boshqa turlari mavjud. Voqealar rivoji davomida ijtimoiy Konflikt siyosiy konfliktga, siyosiy konflikt falsafiy konfliktga aylanishi mumkin. Katta, o'tkir g'oyalar uchun keskin kurashga asoslangan to'qnashuvda fojaviy ruh ustun bo'lib, fojaviy konfliktni tug'diradi yoki kulgili, o'tkir hajviy yo'nalishdagi vaziyat, holat, voqealar kulgili ruhni hosil qiladi. Konfliktning mohiyati zamon, makon bilan jips bog'liq. Shunday konfliktlarlar bo'ladiki, davr o'tishi bilan ular





barham topadi. Dunyoda yaratilgan asarlar konfliktini zaminida taqdir taqozosi turgan bo'lsa, o'rta asrlardagi asarlarda ilohiy kuch bilan insondagi shaytoniy xirs konfliktning asosini tashkil etadi. Romantizm davrida voqelik, muhit, shart-sharoit bilan ideal o'rtasida, yaxshilik bilan yomonlik, ruhiy erkinlik bilan turmush tashvishlari o'rtasidagi ziddiyat hukmronlik qilgan, realizm tantana qilgan davrda inson mohiyati, uning istagi, imkoniyati bilan ijtimoiy-tarixiy shart-sharoit zaminida konflikt yuzaga kelgan. Shunday boqiy mavzular borki (masalan, saxiylik va xasislik, vafodorlik va bevafoqlik, tiriklik va o'lim), bularda konflikt har bir davrning ma'naviy, ruhiy talab va ehtiyojlaridan kelib talqin qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova. Ijtimoiy psixologiya va amaliyot. — T.: 2009. 13 2. Karimova, O. Xayitov. Shaxsning ijtimoiylashuv masalasi. - T.: 2000
2. I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — T.: 4. «Ma'naviyat», 2008. 2 Гидденс Э. Социология. — 2002. 5. Маерс Д. Социальная психология. — М.: Аллель, 2000

